


Iste'mol bozori


Viloyatda savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2018 yil yanvar-iyul oylarida 4221.3 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104.1 foizga oshgan

Yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo hajmi joriy yilning yanvar-iyul oylarida 3021.8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104.0 foizni tashkil etdi.



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Namangan shahri (40,2 foiz), Norin tumani (7,1 foiz), Chust tumani (8,5 foiz), To'raqo'rg'on (7,1), Yangiqo'rg'on tumanlarni (6,0 foiz) ko'rsatkich bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 1.6 mln.so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-iyul oylarida 1,3 mln. so'mni tashkil qilgan edi).



O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Norin tumani (1.9 mln. so'm), To'raqo'rg'on tumani (1,4 mln. so'm) Yangiqo'rg'on tumani (1,2 mln. so'm) kuzatildi.

	so'm	2017 yil Yanvar-iyul xolatiga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	1557743	102,3
Namangan sh	2815164	103,1
Mingbuloq	810153	98,2
Kosonsoy	1364937	97,9
Namangan	859732	96,9
Norin	1901427	102,6
Pop	1168916	106,0
To'raqo'rg'on	1386072	95,5
Uychi	873495	100,7
Uchqo'rg'on	1064787	101,6
Chortoq	990598	101,4
Chust	1399376	111,0
Yangiqo'rg'on	1211342	102,5

Murojaat uchun telefon:69 227-84-87